



TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA ZAMONAVIY BIZNES EVOLUTSIYASI.

**Abiyirova Dilnavoz**

TKTI 25-60 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Alijonov Jamshid**


[abiyirovad@gmail.com](mailto:abiyirovad@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu ishda tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari va biznes olamining tarixiy evolyutsiyasi kompleks tarzda tahlil qilingan. Maqolada tadbirkorlik shunchaki iqtisodiy foyda olish vositasi emas, balki resurslarni (yer, kapital, mehnat) samarali birlashtiruvchi va jamiyatni rivojlantiruvchi strategik kuch ekanligi yoritib berilgan. Tadqiqot davomida tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishidagi "uch to'liq" — tavakkalchilikdan innovatsiyagacha bo'lgan bosqichlar hamda R. Kantilon, Y. Shumpeter, F. Xayek kabi iqtisodchilarning qarashlari qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, zamonaviy biznesning texnologik transformatsiyasi, xususan, ERP tizimlarining evolyutsiyasi, sun'iy intellekt va raqamli marketingning bugungi kundagi roli asoslab berilgan. Alohida e'tibor O'zbekistondagi tadbirkorlik muhitiga, xususan, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga qaratilgan. Ishning yakuniy qismida zamonaviy tadbirkorga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlar va bozor talablariga moslashish strategiyalari bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik qobiliyati, biznes evolyutsiyasi, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, ERP tizimlari, tavakkalchilik, kichik biznes, eksport, investitsiya.

Bugungi tezkor va raqobatga boy dunyoda tadbirkorlik nafaqat daromad topish vositasi, balki jamiyat rivojining muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Har bir muvaffaqiyatli biznes ortida o'ziga xos fikrlash, tavakkal qilishga tayyorlik va yangilikka intilish yotadi. Tadbirkorlik qobiliyati esa insonning imkoniyatlarni ko'ra bilishi, resurslarni to'g'ri boshqarishi va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishida namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirgan holda kichik business boshlab uni jahon bozorigacha obchiqish mumkin. Shuningdek tadbirkorlik qobiliyati-bu tavakkalchilik (risk), tashabuskorlik va resurslarni samarali birlashtirish orqali foyda olishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyatdir.

Tadbirkorlik qobiliyati businessning asosiy unsuri hisoblanadi, tadbirkorlik faoliyatida asosan stressga tayyor bo'lish yani unga chidamiylik, mantiqiy va erkin tarzda fikrlay olish, vaziyatni to'g'ri tahlil qilish, raqobatbordoshlik juda muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillari- yer (tabiiy resurslar), kapital (ishlab chiqarish vositalari) va mehnat resurslari o'zaro biriktirib, ularning bir-biriga muvofiq harakatini ta'minlab, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi. Tadbirkorlik faoliyatining turli xil turlari mavjud va ko'pchilik biladigan tadbirkorlik turini





misol qilib keltirsak bu tijorat tadbirkorli bunda tovar-pul munosabatlari va savdo-ayirboshlash operatsiyalariga, yani tovar va xizmatlarni qayta sotishga asoslangan faoliyat turi hisoblanadi. Hozirgi rivojlanayotgan zamonda tadbirkorlik faoliyatiga juda katta etibor qaratilmoqda ularga har xil erkinliklar yaratib berilmoqda.

### **Adabiyot tahlili.**

Tadbirkorlik va uning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Tadbirkorlik fenomeniga ilmiy yondashuvlarning shakllanishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bir davr o'zining o'ziga xos nazariy asoslariga ega.

Xususan, klassik iqtisodiy maktab vakillari, jumladan, Adam Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida"gi asarida tadbirkorni mulkdor va tavakkalchi sifatida ta'riflagan. Uning fikricha, tadbirkor iqtisodiy jarayonlarning markazida turib, resurslarni taqsimlashda "ko'rinmas qo'l" mexanizmi orqali bozor muvozanatini ta'minlaydi.

Tadbirkorlikning innovatsion tabiatini yoritishda Yozef Shumpeterning xizmatlari beqiyosdir. U tadbirkorlikni "ijodiy buzish" (creative destruction) jarayoni deb atagan. Shumpeter talqiniga ko'ra, haqiqiy tadbirkor — bu shunchaki biznes egasi emas, balki ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar, yangi xomashyo turlari va yangi boshqaruv usullarini joriy etuvchi novatoridir. Uning ushbu nazariyasi bugungi kundagi startaplar va yuqori texnologiyali bizneslar uchun fundamental asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Fridrix fon Xayek kabi iqtisodchilar tadbirkorlikni "axborotni izlash va qayta ishlash jarayoni" deb hisoblashgan. Xayek bozor sharoitida axborot hamma uchun birdek ochiq emasligini, muvaffaqiyatli tadbirkor esa boshqalar sezmagani imkoniyatlarni va narxlardagi farqlarni ko'ra bilish qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidlagan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.V. Vahobov va S.S. Gulyamovlar o'z tadqiqotlarida O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkorlikning raqamli transformatsiyasiga alohida urg'u berishgan. Ularning fikricha, bugungi kunda tadbirkorlik qobiliyati nafaqat shaxsiy fazilatlar, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallash darajasi bilan ham o'lchanmoqda.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik tushunchasi vaqt o'tishi bilan oddiy tavakkalchilikdan murakkab innovatsion va raqamli boshqaruv bosqichigacha evolyutsiya qilib kelgan.

Shuningdek prezidentimiz shunday deganlar: bizning yana bir muhim vazifamiz- kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab- quvvatlash va rag'banlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratni, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart- sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Nega deganda, tadbirkorlik nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni, xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi.





Tadbirkorlik faoliyati shunchaki iqtisodiy resurslarni birlashtirish emas, balki shaxsning o'ziga xos intellektual salohiyati va ichki irodasining majmuidir. Zamonaviy biznes muhitida tadbirkorning muvaffaqiyati uning nafaqat iqtisodiy bilimiga, balki o'zgaruvchan sharoitlarda stressga chidamliligi va mantiqiy fikrlay olish qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir. Tadbirkorlik qobiliyati insonning kutilmagan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda tezkor va o'ta aniqlik bilan qaror qabul qila olishida, bozordagi mavjud bo'shliqlarni boshqalardan avvalroq payqab, ularni ko'ra bilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Muvaffaqiyatli biznes egasi bo'lish istagidagi har bir shaxs o'zida bir qator fundamental fazilatlarni muntazam ravishda shakllantirib borishi lozim deb hisoblanadi. Birinchidan, bu strategik tashabbuskorlik bo'lib, u tadbirkorga yangi imkoniyatlarni izlab topish va ularni xalqchil loyihalarga aylantirish imkonini beradi. Ikkinchidan, yuqori mas'uliyat tuyg'usi muhim bo'lib, har bir qabul qilingan iqtisodiy qarorning oqibatini hamda kelajakdagi natijalarini chuqur his qilishni talab etadi.

Uchinchidan, tadbirkorlik yo'lida sabr-toqat va irodali bo'lish eng muhim omillardan biridir. Zero, kichik oilaviy biznesni noldan boshlab, uni yirik ishlab chiqarish darajasigacha yoki jahon bozorlarigacha olib chiqish tinimsiz mehnat va uzoq vaqt talab qiladigan murakkab jarayondir. To'rtinchidan esa, tahliliy fikrlash qobiliyati bo'lib, faoliyatni boshlashdan avval bozordagi iste'molchilar talabini chuqur o'rganish va raqobatchilarning harakatlarini oldindan tahlil qilish biznesning barqarorligini kafolatlaydi.

Hozirgi kunda tadbirkorlikning turli shakllari mavjud bo'lib, ular jamiyatning kundalik va strategik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Masalan, tijorat tadbirkorligi asosan tayyor mahsulotlarni sotib olish va ularni iste'molchilarga qayta sotish operatsiyalariga tayansa, ishlab chiqarish tadbirkorligi bevosita yangi moddiy ne'matlarni yaratish va xomashyoni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish sohasidagi zamonaviy yo'nalishlar, xususan, konsalting, logistika va IT xizmatlari bugungi kunda aholi bandligini ta'minlashda eng yetakchi o'rinlarni egallamoqda.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion tadbirkorlik yangi ilmiy g'oyalar va raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali biznes evolyutsiyasini mutlaqo yangi bosqichga ko'taradi. Bunday faoliyat turi iqtisodiyotda ish unumdorligini keskin oshirishga va mahsulotlarning sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan intilishning mevasidir. Shu sababli, har bir bo'lg'usi tadbirkor o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, zamonaviy boshqaruv uslublarini va digital marketing sirlarini puxta o'zlashtirib borishi zarur

Bugungi shiddatli va raqobatga boy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik nafaqat moddiy daromad topish manbai, balki jamiyatning ijtimoiy qiyofasini o'zgartiruvchi va davlatning iqtisodiy qudratini belgilovchi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlar negizida "xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" degan ustuvor tamoyil yotadi. Shundan kelib chiqqan





holda, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Tadbirkor nafaqat o'z oilasining farovonligini ta'minlaydi, balki ish o'rinlari yaratish orqali xalqning moddiy ehtiyojlarini qondirishga va davlat xazinasini boyitishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda yurtimizda ko'plab oilalar o'zlarining kichik oilaviy bizneslarini yuritish orqali tadbirkorlik maydoniga kirib kelmoqdalar. Bunday tashabbuskor qatlam uchun davlat tomonidan keng ko'lamlı imtiyozlar tizimi yaratilgan bo'lib, ular banklardan imtiyozli va uzoq muddatli kreditlar olish, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan yer maydonlari bilan ta'minlanish hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Ushbu jarayonlarning barchasi tadbirkorlarning huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi maxsus qonunlar doirasida amalga oshirilmoqda, bu esa biznes yuritishda xavfsizlik va barqarorlikni kafolatlaydi.

Tadbirkorlik faoliyati o'z tabiatiga ko'ra, mulkiy mas'uliyat ostida va qonun doirasida amalga oshiriladigan, ma'lum bir tavakkalchilik ("taxlika") bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy harakatdir. Ushbu sohaning ilmiy va nazariy ildizlariga nazar tashlasak, uning rivojlanishi uchta asosiy to'lqin yoki bosqichga bo'linganini ko'ramiz.

Tadbirkorlik nazariyasining birinchi bosqichi 18-asrda shakllangan bo'lib, u bevosita tadbirkorning tavakkal qilish (risk) jarayoni bilan bog'langan. Iqtisodiyot fanida ushbu yo'nalishdagi dastlabki fundamental tadqiqotlar R. Kantilon, A. Tyurgo, F. Kene va A. Smit kabi klassik iqtisodchilarning asarlarida aks etgan. Ular tadbirkorni noaniqlik sharoitida qaror qabul qiluvchi va bozorning turli omillarini birlashtiruvchi shaxs sifatida ta'riflaganlar.

Tadbirkorlik evolyutsiyasining ikkinchi bosqichi esa innovatsion faoliyat bilan tavsiflanadi. Mazkur oqimning asoschisi Ğ. Shumpeterning fikricha, iqtisodiy taraqqiyotning tub negizida tadbirkorning ishlab chiqarish omillarini (yer, kapital, mehnat) mutlaqo yangi kombinatsiyalarda qo'llashga bo'lgan intilishi yotadi. Bu intilishning pirovard natijasi esa yangi mahsulotlar, texnologiyalar va bozorlarning yaratilishi, ya'ni innovatsiyalardir. Shumpeter tadbirkorni "yaratuvchan vayronkor" (creative destroyer) sifatida ko'rib, u eski iqtisodiy tuzilmalarni yangilash orqali o'sishni ta'minlashini uqtirgan.

Uchinchi bosqichga kelib, tadbirkorlikning muhim shaxsiy fazilatları, jumladan, izlanish, tahlil va tadqiqot olib borish qobiliyati birinchi planga chiqdi. Ushbu maktab namoyandalari Ф. Xayek va Л. Mizes tadbirkorlikka yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish san'ati sifatida yondashganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, tadbirkor — bu faqatgina tayyor resurslardan foydalanuvchi emas, balki boshqalar ko'ra olmagan imkoniyatlarni payqaydigan va ulardan foydalana oladigan shaxsdir. Shu ma'noda, faoliyati muntazam izlanish va yangilikka intilish tarzida kechadigan har qanday shaxsni, uning faoliyat ko'lami qanday bo'lishidan qat'i nazar, bo'lg'usi tadbirkor deb hisoblash mumkin.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurutuvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Tadbirkorlik mulkchilik va o'zlashtirish turli-tuman shakllari va turlarining mavjudligini taqazo qiladi. Tadbirkorlik faoliyatining yakka tartibdagi faoliyat turi mavjud bo'lib, bunda vazirlar mahkamasining 6-qaroriga muvofiq faoliyat amalga oshirish mumkin bo'lgan ro'yxat berilgan, shu ro'yxatga asosan o'ziga tegishli bo'lmagan joyda ijara asosida faoliyat yuritadigan bo'lsa, va u joy noturar joy bo'ladigan bo'lsa tanlash huquqsiz bu yakka tartibdagi tadbirkor nom asosida faoliyat turi tanlanadi. Masalan tadbirkor o'z uyidan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyatini yuritadigan bo'lsa, bunday holatda o'z uyini noturarga aylantirishi kerak bo'ladi.

Shuningdek dehqonchilik tadbirkorlik faoliyat turi mavjud bo'lib, bunda asosan poliz ekinlari yetishtirish orqali tadbirkorlik qilishdir, bunda asosiy etibor export va importga qaratilgan bo'ladi, negaki hozirda O'zbekistonda exportni rivojlantirish bo'yicha har xil ishlar amalga oshirilmoqda va bu orqali biz o'z mahsulotimizni chet davlatlariga logistika xizmati bilan birga export qilishimiz va boshqa davlatlar bilan export orqali aloqalarni o'rnatishimiz yokida yaxshilashimiz mumkin. Bundan tashqari ishlab chiqarish tadbirkorligi- mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'illanuvchi tadbirkorlar masalan (kiyim-kechak, oziq-ovqat). Savdo tadbirkorligi-tovarlarni sotib olib, qayta sotish orqali foyda ko'radi. Xizmat ko'rsatish tadbirkorligi-aholiga turli xizmatlar ko'rsatadi (masalan, sartareshona, IT xizmatlar). Innovatsion tadbirkorlik-yangi g'oya va texnologiyalar asosida ishlaydi.

Yaxshi tadbirkor bo'lish uchun bir qator muhim fazilatlar talab etiladi. Avvalo, tadbirkor tashabbuskor bo'lishi kerak. U yangi imkoniyatlarni ko'ra olishi va ulardan foydalana bilishi lozim. Shuningdek sabr-toqat, mehnatsevarlik, ma'suliyat va muammolarni hal qilish muhim. Tadbirkor doim o'z ustida ishlashi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi zarur.

Tadbirkor faoliyatini boshlash uchun hozir ko'rib chiqiladigan bosqichlar muhim hisoblanadi. Birinchisi g'oya tanlash-qaysi yo'nalishda biznes qilishni aniqlash. Bozorni o'rganish-mijozlar talabi va raqobatchilarni tahlil qilish. Biznes reja tuzish- xarajatlar, daromadlar va strategiyani aniqlash. Moliyaviy manba toppish- o'z mablag'i yoki kredit orqali boshlash. Ro'yxatdan o'tish- qonuniy faoliyat yuritish uchun davlatdan ruxsat olish. Bugungi kunda O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kreditlar ajratilmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab- quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda, yani ayollarni ish bilan taminlab bandlikka qamrov qilish maqsadida davlat keng imkoniyat yaratib bormoqda.

Zamonaviy biznesdagi ERP evolyutsiyasi ERP tizimlari vaqt o'tishi bilan sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Ular 1960-yillarda material resurslariga bo'lgan ehtiyojni rejalashtirish (MRP) sifatida boshlangan va asosan zaxiralarni nazorat qilish va rejalashtirish bilan shug'ullangan. Asta-sekin ERP korxonalarining turli bo'limlarini





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

birlashtirgan holda kengroq funksiyalarni o'z ichiga olgan. Zamonaviy ERP-yechimlar masshtablanadigan, moslashuvchan va foydalanuvchilarga qulay platformalarni ta'minlash uchun sun'iy intellekt (AI), mashinali o'qitish va bulutli hisoblash kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanadi.

ERP-yechimlarining afzalliklari Operatsiyalarni optimallashtirish: Logix ERP tizimlari ma'lumotlar va jarayonlar izolyatsiyasini bartaraf etadi, ularni markazlashtirib, ish jarayonlarini avtomatlashtiradi va qo'lda bajariladigan topshiriqlarni yo'q qiladi. Optimallashtirish butun kompaniyada samaradorlik va ishlab chiqarishni oshiradi.

Ma'lumotlar aniqligining yaxshilanishi va mavjudligi: Logix ERP yechimlari ma'lumotlar tafovutlarini minimallashtiradi va ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlaydi, haqiqatning yagona manbayini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, vakolatli shaxslar real vaqt rejimida yangilangan ma'lumotlarga kirish imkoniyatiga ega, bu esa tezroq va aniqroq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Zamonaviy biznes zamonaviy texnologiyalar orqali oxirgi yillarda jadal rivojlanib bormoqda shuning uchun biz hozirda biznesimizni boshlamoqchi bo'lsak albatta digital marketingga muroojat qilishimiz kerak chunki hozirda sotuv bozorida raqobatchilar biznesini platformalar orqali sotuvini kuchaytirmoqda, bundan tashqari tadbirkorlar ham o'z bilim ko'nikmalarini rivojlantirish uchun hozirda shunga doir kurslar mavjud bo'lib, tadbirkorlar bemaol foydalanishi va amalda qo'llashi mumkin. Shuningdek zamonaviy biznes evolyutsiyasi — bu biznes faoliyatining tarix davomida bosqichma-bosqich rivojlanib, hozirgi zamonaviy ko'rinishga kelish jarayonidir. Biznes dastlab oddiy savdo va hunarmandchilik shaklida paydo bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib u global miqyosda faoliyat yurituvchi, texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan murakkab tizimga aylangan.

Tarixiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, biznesning ilk shakllari an'anaviy iqtisodiyotga asoslangan bo'lib, bunda inson mehnati asosiy o'rin egallagan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi faoliyatlar orqali odamlar o'z ehtiyojlarini qondirgan va ortiqcha mahsulotni sotish orqali daromad topgan. Bu davrda ishlab chiqarish hajmi kichik bo'lib, savdo asosan mahalliy bozorlarda amalga oshirilgan.

18–19-asrlarda yuz bergan sanoat inqilobi biznes rivojida tub burilish yasadi. Mashinalarning paydo bo'lishi ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirdi, zavodlar tashkil etildi va ommaviy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada mahsulotlar arzonlashdi, ishlab chiqarish hajmi bir necha barobarga oshdi va yangi ish o'rinlari yaratildi.

20-asrga kelib esa yirik korporatsiyalar shakllandi va biznes boshqaruvi tizimi rivojlandi. Menejment, marketing va moliyaviy boshqaruv kabi tushunchalar keng qo'llanila boshlandi. Kompaniyalar o'z faoliyatini rejalashtirish, samaradorlikni oshirish va bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun yangi usullarni joriy eta boshladilar.

20-asr oxiri va 21-asr boshlarida globalizatsiya jarayoni biznesni yanada kengaytirdi. Xalqaro savdo aloqalari kuchaydi, kompaniyalar bir nechta mamlakatlarda faoliyat yurita boshladi. Internetning rivojlanishi esa biznes yuritishda yangi imkoniyatlarni ochib berdi.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Hozirgi kunda biznesning eng muhim bosqichi — bu raqamli iqtisodiyot davridir. Zamonaviy biznes internet, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektga asoslanadi. Elektron tijorat, onlayn xizmatlar, mobil ilovalar orqali savdo qilish keng tarqalgan. Bu esa biznesni tez, qulay va samarali yuritish imkonini bermoqda.

Zamonaviy biznesning asosiy xususiyatlari sifatida innovatsion yondashuv, moslashuvchanlik, mijozga yo'naltirilganlik va global fikrlashni ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda muvaffaqiyatga erishish uchun kompaniyalar bozor talablariga tez javob berishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi va doimiy rivojlanishga intilishi zarur.


Tadbirkorlik qobiliyatining evolyutsion rivojlanishini bugungi kunda ishlab chiqarish sohasida muvaffaqiyat qozonayotgan kichik korxonalar misolida yaqqol kuzatish mumkin. Masalan, mebel sanoatida faoliyat yuritayotgan oddiy bir hunarmandning yirik innovatsion tadbirkorga aylanish jarayoni yuqorida keltirilgan barcha ilmiy bosqichlarni o'zida mujassam etadi.

Dastlabki bosqichda tadbirkor faqat buyurtma asosida ishlovchi va cheklangan resurslar bilan tavakkal qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu holatda u R. Kantilon ta'riflagan "tavakkalchi" rolini bajaradi. Biroq, tadbirkorlik qobiliyati rivojlangani sayin, u Y. Shumpeter nazariyasiga muvofiq, ishlab chiqarishga innovatsion kombinatsiyalarni olib kiradi. Xususan, an'anaviy xomashyodan voz kechib, qayta ishlangan ekologik materiallardan foydalanishni yo'lga qo'yadi va dizaynda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llaydi.

Ushbu evolyutsiyaning eng yuqori nuqtasi — raqamli boshqaruv tizimlarining (ERP) joriy etilishidir. Real misol sifatida ko'radigan bo'lsak, tadbirkor ishlab chiqarishning har bir bosqichini — material sarfidan tortib, tayyor mahsulotning yetkazib berilishigacha bo'lgan jarayonni mobil ilova orqali masofadan nazorat qiladi. Bu esa xarajatlarni 30% gacha qisqartirish va mijozlar bilan aloqani xalqaro darajaga olib chiqish imkonini beradi.

Natijada, oddiy ustaxonadan boshlangan faoliyat F. Xayek aytganidek, tinimsiz izlanish va bozordagi yangi imkoniyatlarni o'z vaqtida payqash orqali yirik raqamli biznesga aylanadi. Bu misol shuni isbotlaydiki, bugungi kun tadbirkori nafaqat mahsulot yaratuvchisi, balki texnologiya va intellektual salohiyatni birlashtiruvchi strategik menejerdir.

Tadbirkorlik faoliyati va zamonaviy biznesning rivojlanish bosqichlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu soha shunchaki moddiy foyda olish vositasi emas, balki jamiyatni harakatga keltiruvchi murakkab intellektual jarayondir. Tadbirkorlik qobiliyati o'z mohiyatiga ko'ra, imkoniyatlarni ko'ra bilish, mavjud resurslarni (yer, kapital, mehnat) yagona maqsad yo'lida samarali birlashtirish va yuqori mas'uliyat bilan qaror qabul qilish san'atidir. Shunday qilib, zamonaviy tadbirkor — bu faqatgina mulkdor emas, balki stressga chidamli, mantiqiy fikrlaydigan, doimiy bilim olishga intiluvchi va ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan shaxsdir. Biznesning oddiy savdo-ayirboshlashdan yuqori texnologik xizmatlarga bo'lgan evolyutsiyasi shuni anglatadiki, kelajakda faqat innovatsion yondashuvga ega, mijozga yo'naltirilgan va global fikrlaydigan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tadbirkorlarga muvaffaqiyatga erishadi. Tadbirkorlikning qonuniy asosda himoya qilinishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi esa bu jarayonning uzluksizligini ta'minlovchi poydevordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O'zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Smit A. **Исследование о природе и причинах богатства народов.** – Moskva: Eksmo, 2007. – 960 s.
3. Vaxabov A.V., Tojiboyeva D.A. **Iqtisodiyot nazariyasi: darslik.** – Toshkent: Sharq, 2020. – 560 b.
4. Gulyamov S.S. **Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik: o'quv qo'llanma.** – Toshkent: TAYLOQI, 2019. – 256 b.
5. Abdullayev Yo. **Bozor iqtisodiyoti asoslari.** – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 320 b.
6. Drucker P.F. **Innovation and Entrepreneurship.** – New York: Harper Business, 2006. – 288 p.

